



O'ZBEK TILIDAGI ARABCHA O'ZLASHMALARDA
PLEONAZM HODISASI

Xurshidaxon Turg'unova Toxirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

hurshidahont@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu tezisda hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi, o'zbek tilining o'z qatlami va o'zlashgan qatlamlarining xususiyatlari, o'zbek tili tarkibiga arab tilidan kirgan leksemalar va ularning asl, hamda o'zlashma, uslubiy qo'llanilishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari, arab tilidan kirib kelgan so'zlar tahliliga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *Manba, leksik qatlam, leksik birliklar, affiks, leksema, lug'aviy birlik, sema, monosemantik, asl ma'no, ko'chma ma'no.*


АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассмотрены лексика современного узбекского языка, особенности собственного слоя узбекского языка и ассимилированных слоев, лексемы из арабского языка и их оригинального, а также заимствованного, стилистического употребления, уделено внимание их лексико-семантическому смыслу. особенности, анализ слов, пришедших из арабского языка.*

Ключевые слова: *Источник, лексический пласт, лексические единицы, аффикс, лексема, лексическая единица, sema, однозначность, исходное значение, переносное значение.*

ANNOTATION: *This article focuses on the vocabulary of the modern Uzbek language, its own layer and layers of acquisition, lexemes from the Arabic language and their original, as well as accepted, methodological use, lexical-semantic features. characteristics, analysis of words that came from the Arabic language.*

Key words: *Source, lexical layer, lexical units, affix, lexeme, lexical unit, sema, monosemantic, original meaning, figurative meaning.*

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi ya'ni o'z qatlami o'zbek tilining uzoq yillar mobaynida butun taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Shu sababli undagi mavjud so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbai (asosi) ham har xildir. Umuman, har qanday til o'z lug'at tarkibi, va grammatik qurilishiga ega bo'ladi. Har bir til, asosan o'z lug'at boyligi va grammatik qurilishi asosida o'z taraqqiyot qonunlari bo'yicha shakllanib, o'sib, takomillashib boradi. Lekin xalqlar o'rtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan turli iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

xalqlarning tillariga ham, lug'at tarkibiga ham shubhasiz, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada, aslida bir tilga xos bo'lgan fonetik, leksik va boshqa bir qator elementlar ikkinchi bir tilga o'tib, unga o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir qilish boshqa qatlamlardan ko'ra, ayniqsa, tilning leksik qatlamida kuchliroq bo'ladi va aniqroq namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqi ham, shu qatorda, o'z rivojlanish tarixining turli davrlarida va bosqichlarida boshqa ko'plab xalqlar bilan o'zaro turli iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqada bo'lgan, hamda bu xalqlarning tili, shubhasiz, o'zbek tiliga ham ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Xususan, boshqa tillar leksikasidan o'zbek tili leksikasiga juda ko'plab so'zlar o'zlashganligini shu ta'sir orqali izohlashimiz mumkin. Natijada o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan bir qatorda yana o'zlashgan leksik qatlam ham yuzaga kelgan. O'zbek tilining lug'at boyligi so'zlar va iboralardan iborat. Uning bu boyligi hamma uchun umumiy bo'lib, hamma tomonidan birday qo'llanilishi mumkin. Bu boyluk tilning tarixiy taraqqiyoti davomida to'plangan. Bu esa o'z navbatida, tilning tarixiy taraqqiyoti hisobiga ham, shu bilan birga boshqa turli xalqlar bilan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari davrida o'zlashtirgan leksik birliklari hisobiga ham amalga oshgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan qaralganda, hozirgi o'zbek tili lug'at boyligida ikkita yirik qatlam : o'z va o'zlashgan qatlam borligi ma'lum bo'ladi. O'z qatlam deganda azaldan aslan faqatgina shu tilniki bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasallishlar, shuningdek, o'z affiks bilan boshqa til leksemalaridan yasallishlar tushuniladi.

O'zbek tili taraqqiyotida boshqa xalqlarning lisoniy ta'siri, xususan, leksik qatlamda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni xalqlar orasidagi o'zaro aloqa almashinuv vositalari orqali o'zlashmalar paydo bo'ldi. Ba'zi o'zlashmalar o'z ma'nosida o'zlashgan bo'lsa, ba'zilari umuman aks ma'noda, ba'zilari esa o'z ma'nosidan umuman uzoq bo'lgan semada o'zlashgan. Qolaversa o'zlashgan so'zlarni qo'llashda pleonazm hodisasi ham yuzaga keladi. Pleonazm hodisasi bu biror fikrni ifodalashda bir xil yoki o'xshash ma'noli so'zlarning ortiqcha ishlatilishi. Masalan bu hodisaga misol qilib lahm go'sht iborasini olishimiz mumkin. Aslida lahm (لحم) arab tilida go'sht degan ma'noni ifodalaydi, yana unga qo'shimcha tarzida go'sht so'zini qo'yib ishlatishlik pleonasm hisoblanadi. Yana misol tariqasida naqd pul iborasini keltirishimiz mumkin. Naqd نقد so'zi arab tilida pul degan ma'noni ifodalaydi, unga yana qo'shimcha tarzida pul so'zini qayta ishlatishlik ham pleonasm hisoblanadi.

Yakuniy xulosa iborasi ham pleonasm hisoblanadi, sababi xulosa so'zi arab tilida yakunlash , tugatish ma'nolarini bildiradi, unga yakuniy so'zini qo'shib ishlatish pleonasm hodisasini keltirib chiqaradi.

Ichki Interyer iborasida ham pleonasm yuz bergan , interyer so'zi fransuz tilida ichki ko'rinish degan ma'noni ifodalaydi, unga qo'shimcha tarzida yana ichki so'zini qo'shishlik pleonazmni vujudga keltiradi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Asosiy baza iborasida ham pleonasm mavjud. Sababi baza so'zi yunoncha so'z bo'lib, asos , negiz ma'nosini ifodalaydi. Bu yerda asosiy so'zini qo'llashlik, bir ma'noni ikki marta takrorlash, ya'ni yuqoridagi hodisani ayni o'zidir.

Nur ustiga a'lo nur – maqolida ham bu hodisa mavjud. Ya'ni maqol orasidagi a'lo so'zi arab tilida ust degan ma'noni ifodalaydi, ketma -ket bir xil ma'noli so'z qo'llanishi pleonazmni hosil qilgan.

XULOSA

Tezisdagi arabcha o'zlashmalarining o'zbek tilidagi semantik o'zgarishlari tahlil qilindi. Ushbu so'zlar va iboralarda vujudga keladigan lingvistik hodisalar, xususan, pleonasm hodisasi haqida fikr yuritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu o'zlashmalar til tizimida faol ishlatilmoqda va ularning leksik tizimdagi o'rni muhimdir.

REFERENCES:

1. Eshonqulov B.X. Hozirgi o'zbek adabiy tilida arabiy lug'aviy o'zlashmalarining paradigmik assilyasiya munosabati. Avtoreferat. -T.: 1996. S. 21.;
2. Raxmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. Magistrantlar uchun o'quv qo'llanma. -T.:Universitet, 2007. 159 b.
3. Raxmatullayev Sh. N.Mamatov, R. Shukurov.O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. I.Qo'chkortoyev tahriri ostida. -T.: O'qituvchi, 1980. 237 b.
4. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Toshkent: 1995. 288 b.
5. Saloyev R., Avazmetov Sh -O'zbek tilidagi arabcha va forsha so'zlar lug'ati" O'qituvchi, 1996. 89 b.
6. Usmanova S. O'zbek tilining lug'at sostavida tojik-forsha va arabcha so'zlar. T.: 1968.
7. Нишонов А. Фонетико-морфологический и лексико-семантический анализ арабизмов в языке А.Навои.-Ташкент.

